



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BOLA TA'LIMI VA RIVOJLANISHIDA TARBİYACHINING HAMKORLIKDA ISHLASH SHAKLLARI

Tursunaliyeva Dildoraxon Abdurasul qizi
Namangan davlat pedagogika instituti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining hamkorlik faoliyatining bola ta'limi va rivojlanishidagi o'rni nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida hamkorlikka asoslangan yondashuvlarning keng qo'llanilishi bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi tarbiyachining bola, ota-ona va pedagogik jamoa bilan hamkorlik shakllarini aniqlash va ularning pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida nazariy tahlil, umumlashtirish va komparativ yondashuvdan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko'ra, hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyat bola rivojining ijtimoiy, emotsional va kognitiv jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ilmiy yangilik sifatida hamkorlik shakllarining tizimli modeli taklif etildi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida samarali qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: hamkorlik, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi faoliyati, pedagogik hamkorlik, oila va MTT hamkorligi, bola rivoji, ijtimoiy rivojlanish.

ФОРМЫ СОВМЕСТНОЙ РАБОТЫ ВОСПИТАТЕЛЯ В ОБУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ РЕБЕНКА

Турсуналиева Дилдорахон Абдурасул кизи
Наманганский государственный педагогический институт, магистрант

Аннотация

В данной статье теоретически анализируется роль сотрудничества воспитателя в обучении и развитии ребёнка в системе дошкольного образования. Актуальность исследования обусловлена широким внедрением сотрудничества как ключевого педагогического подхода в современном образовании. Цель исследования заключается в выявлении форм взаимодействия воспитателя с ребёнком, родителями и педагогическим коллективом, а также обосновании их педагогических возможностей. В работе использованы методы теоретического анализа, обобщения и сравнительного подхода. Результаты исследования показывают, что сотрудничество оказывает положительное влияние на социальное, эмоциональное и когнитивное развитие ребёнка. Научная новизна заключается в разработке системной модели педагогического сотрудничества. Практическая значимость работы состоит в возможности применения полученных результатов в дошкольной образовательной практике.

Ключевые слова: сотрудничество, дошкольное образование, деятельность воспитателя, педагогическое взаимодействие, сотрудничество семьи и ДОУ, развитие ребёнка, социальное развитие.

FORMS OF COLLABORATIVE WORK OF THE EDUCATOR IN A CHILD'S EDUCATION AND DEVELOPMENT

Tursunaliyeva Dildoraxon Abdurasul qizi
Namangan State Pedagogical Institute, Master's student

Abstract

This article provides a theoretical analysis of the role of teacher collaboration in child education and development within preschool education. The relevance of the study is determined by the growing importance of collaborative approaches in modern educational practices. The aim of the research is to identify forms of interaction between the teacher, the child, parents, and the pedagogical team, and to justify their pedagogical potential. The study employs theoretical analysis, generalization, and comparative methods. The findings indicate that collaborative practices positively influence children's social, emotional, and cognitive development. The scientific novelty lies in proposing a systematic model of pedagogical collaboration. The results of the study can be effectively applied in preschool educational practice.

Keywords: collaboration, preschool education, teacher activity, pedagogical interaction, family-

school cooperation, child development, social development.

Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda ta'lim jarayonida hamkorlikka asoslangan yondashuvlar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishi ko'p jihatdan tarbiyachining pedagogik faoliyatiga va uning turli subyektlar bilan hamkorlik darajasiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachining bola, ota-ona va pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlikda ishlashi ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Bola rivojida hamkorlikning ahamiyati shundaki, u bolaga nafaqat bilim berish, balki uni ijtimoiy muhitga moslashtirish, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yosh davrida bola atrofidagi kattalar bilan faol muloqot orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, o'zaro munosabatlar madaniyatini egallaydi va ijtimoiy xulq-atvor normalarini shakllantiradi. Bu jarayonda tarbiyachining yo'naltiruvchi va hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tarbiyachining hamkorlik faoliyati ko'p qirrali bo'lib, u bola bilan bevosita ishlash, ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yish va pedagogik jamoa bilan tajriba almashishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanishida uzviylikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, pedagogik jamoa doirasidagi hamkorlik tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish va ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Biroq amaliyotda tarbiyachining hamkorlik faoliyati ko'pincha tizimli va maqsadli tashkil etilmaydi. Ota-onalar bilan aloqalar yuzaki xarakterga ega bo'lib qolishi, pedagoglar o'rtasida tajriba almashish yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi va bola bilan individual hamkorlik shakllarining to'liq qo'llanilmasligi kuzatiladi. Bu esa bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli tarbiyachining hamkorlik faoliyatini ilmiy asosda o'rganish va samarali shakllarini aniqlash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bola ta'limi va rivojlanishida tarbiyachining hamkorlikda ishlash shakllarini nazariy jihatdan tahlil qilish va ularning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: hamkorlik tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berish, maktabgacha ta'limda hamkorlikning o'rnini aniqlash, tarbiyachining turli hamkorlik shakllarini tahlil qilish hamda ularning bola rivojiga ta'sirini asoslash.

Hamkorlik zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayonining muhim tamoyillaridan biri sifatida qaralib, u ikki yoki undan ortiq subyektning umumiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro faoliyat yuritishini anglatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan hamkorlik nafaqat birgalikda faoliyat olib borish, balki o'zaro tushunish, qo'llab-quvvatlash va bir-birini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida talqin etiladi. Shu sababli hamkorlik ta'lim jarayonini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish va uning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Pedagogik hamkorlik konsepsiyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yangicha asosda tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvda pedagog bilim beruvchi yagona subyekt sifatida emas, balki o'quvchi bilan birgalikda bilimni kashf etuvchi hamkor sifatida qaraladi. Bu esa ta'lim jarayonida faol ishtirok, mustaqil fikrlash va o'zaro hurmat muhitini yaratadi. Subyekt-subyekt munosabati pedagogik hamkorlikning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, bunda barcha ishtirokchilar teng huquqli faol subyekt sifatida qaraladi. Bu yondashuv o'qituvchi va bola o'rtasidagi bir tomonlama boshqaruvni inkor etib, o'zaro muloqot va hamkorlikka asoslangan pedagogik munosabatni shakllantiradi. Natijada bola faol ishtirokchi sifatida o'z fikrini erkin ifoda etish va o'quv jarayonida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hamkorlik bola rivojining barcha jihatlariga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, u bolalarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi. Hamkorlik jarayonida bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qiladi, ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi va jamiyatda o'z o'rnini anglay boshlaydi. Bu esa uning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi. Emotsional va kognitiv rivoj ham hamkorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Hamkorlik jarayonida bola boshqalarni tushunishni, o'z his-tuyg'ularini boshqarishni va empatiya ko'rsatishni o'rganadi. Shu bilan birga, u fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa uning intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muloqot va o'zaro ta'sir ham hamkorlikning asosiy elementlari hisoblanadi. Bola muloqot jarayonida nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi, fikr almashadi va o'zaro tushunishni o'rganadi. Bu jarayon uning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi va kelajakdagi ijtimoiy faoliyati uchun muhim poydevor yaratadi.

Tarbiyachining hamkorlik faoliyati maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi

asosiy omillardan biridir. Tarbiyachi bola bilan hamkorlikda ishlash orqali uning individual xususiyatlarini hisobga oladi, qiziqishlarini aniqlaydi va rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik muhit yaratadi. Bu jarayonda tarbiyachi yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolni bajaradi.

Tarbiyachi va ota-ona hamkorligi ham bola rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi uzviy aloqalar bolaning rivojlanishida izchillikni ta'minlaydi. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik orqali tarbiyachi bolaga nisbatan yagona pedagogik yondashuvni shakllantiradi, bu esa tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tarbiyachi va pedagogik jamoa o'rtasidagi hamkorlik esa kasbiy rivojlanishni ta'minlaydi. Jamoa doirasida tajriba almashish, metodik yordam va o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali tarbiyachining pedagogik mahorati oshadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, tarbiyachining hamkorlik faoliyati bola rivojining barcha jihatlarini qamrab olib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzu doirasida adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda hamkorlik masalasi asosan tarbiyachi-bola, tarbiyachi-ota-ona va pedagoglar jamoasi o'rtasidagi o'zaro ta'sir birligi sifatida yoritiladi. Mahalliy maktabgacha pedagogika manbalarida F. R. Qodirova hamkorlikni bolaning rivojlanishida ta'lim tashkiloti, oila va ijtimoiy muhitning uzviy aloqasi bilan bog'laydi. Uning darsligida maktabgacha ta'lim muassasasi bilan oila o'rtasidagi hamkorlik aloqalari bolani har tomonlama rivojlantirishning zarur sharti sifatida talqin qilinadi.

Mahalliy olimlardan Sh. A. Sodiqova maktabgacha pedagogika doirasida tarbiyachi faoliyatini bola bilan dialogik va hamkorlikka tayangan o'zaro ta'sir sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, tarbiyachi va bola o'rtasidagi pedagogik munosabat biryoqlama ta'sir emas, balki rivojlantiruvchi hamkorlik bo'lishi kerak; bu yondashuv bolada ijtimoiy faollik va o'zini namoyon etish imkonini kuchaytiradi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida Lev Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi mazkur mavzu uchun asosiy nazariy tayanchlardan biri hisoblanadi. Vygotskiy bolalar rivoji, ayniqsa ilk yoshda, ijtimoiy o'zaro ta'sir va kattalar hamda tengdoshlar bilan hamkorlik jarayonida kechishini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, bolaning bilish va rivojlanish imkoniyatlari hamkorlikdagi faoliyat orqali kengayadi, yaqin rivojlanish zonasi aynan shu jarayonda ishga tushadi.

Maktabgacha ta'limdagi hamkorlikli o'rganish bo'yicha zamonaviy xorijiy ishlarda Ebru Uluçay Bektaş va Özlem Melek Erbil Kaya collaborative learningni preschool educationda kutilgan ta'lim natijalariga erishishning samarali yo'li sifatida ko'rsatadi. Ularning tadqiqotida maktabgacha ta'lim pedagoglarining amaliyoti va qarashlari o'rganilib, hamkorlikli faoliyat bolalarning o'zaro muloqoti, ishtiroki va umumiy o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

Shuningdek, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi masalasida Robert C. Piantaning ishlari muhimdir. U preschool teachers, staff va parents o'rtasidagi hamkorlikni bolani keyingi ta'lim bosqichiga tayyorlash va o'tish davrini yengillashtirishning samarali omili sifatida ko'rsatadi. Pianta nazarida oilalar, pedagoglar va institutlar o'rtasidagi tizimli aloqalar bolaning ta'limiy va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir qiladi.

Mazkur nazariy-tahliliy tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining hamkorlik faoliyati shakllari tizimli ravishda o'rganildi va ularning bola ta'limi hamda rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyat bolalarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojiga kompleks ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijasida tarbiyachining hamkorlik faoliyati bir nechta asosiy shakllarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Birinchidan, tarbiyachi va bola o'rtasidagi hamkorlik bolalarning rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Ushbu shaklda pedagog bola bilan individual yondashuv asosida ishlaydi, uning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga oladi hamda faol muloqot orqali bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, tarbiyachi va ota-ona hamkorligi bola rivojlanishida uzluksizlikni ta'minlaydi. Ota-onalar bilan muntazam aloqa, maslahatlashuv va birgalikdagi tarbiyaviy faoliyat bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu hamkorlik orqali bola uchun yagona pedagogik yondashuv shakllanadi.

Uchinchidan, tarbiyachi va pedagogik jamoa hamkorligi metodik tajriba almashish, o'zaro o'rganish va kasbiy rivojlanishni ta'minlaydi. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikka asoslangan yondashuv quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

- Ijtimoiy rivojlanish: bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish va ijtimoiy rollarni egallashni o'rganadi.
- Emotsional rivojlanish: bola boshqalarni tushunish, empatiya ko'rsatish va o'z his-tuyg'ularini

boshqarish ko'nikmalarini egallaydi.

- Kognitiv rivojlanish: hamkorlik jarayonida bola fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Natijada hamkorlik bolani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi va uning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlaydi.

Tahlil asosida tarbiyachining hamkorlik faoliyatini quyidagi tizimli model orqali ifodalash mumkin:

Jadval 1. Tarbiyachining hamkorlik modeli va uning ta'siri

Hamkorlik shakli	Faoliyat mazmuni	Bola rivojiga ta'siri
Tarbiyachi – bola	Individual yondashuv, muloqot	Mustaqil fikrlash, kommunikativ ko'nikma
Tarbiyachi – ota-ona	Maslahat, hamkorlik faoliyati	Tarbiya uzluksizligi, ijtimoiy moslashuv
Tarbiyachi – pedagogik jamoa	Tajriba almashish, metodik yordam	Ta'lim sifati oshishi

Mazkur model shuni ko'rsatadiki, hamkorlik shakllari o'zaro bog'liq holda ishlaganda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ortadi.

Nazariy tahlil natijasida tarbiyachining hamkorlik faoliyati bola rivojining barcha jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuv maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining hamkorlikda ishlash shakllari bola ta'limi va rivojlanishida muhim pedagogik omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi, bola, ota-ona va pedagogik jamoa o'rtasidagi samarali hamkorlik ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi hamda bolalarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojini kompleks tarzda ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuv bolalarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, hamkorlik qilish va ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, tarbiyachi va bola o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabati bolani faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ota-onalar bilan hamkorlik esa tarbiya jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi, pedagogik jamoa bilan hamkorlik esa ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlikka asoslangan pedagogik muhitni yaratish, tarbiyachilarning ota-onalar bilan muntazam aloqasini yo'lga qo'yish, pedagogik jamoada tajriba almashishni kuchaytirish va hamkorlik shakllarini tizimli ravishda tashkil etish zarur. Shuningdek, tarbiyachilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish orqali ularning hamkorlik faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusidagi tadqiqotlar hamkorlikning innovatsion va raqamli shakllarini o'rganish, turli pedagogik sharoitlarda uning samaradorligini empirik jihatdan tahlil qilish hamda bola rivojiga ta'sir mexanizmlarini chuqurroq o'rganishga qaratilishi lozim. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirova F. R., Toshpo'latova Q., Qayumova N. M., Azimova M. N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 384 b.
2. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 320 b.
3. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
4. Эльконин Д. Б. Психология игры. – Москва: Педагогика, 1978. – 304 с.
5. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 2000. – 173 p.
6. Epstein J. L. School, Family, and Community Partnerships. – Boulder: Westview Press, 2011. – 656 p.
7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.